DASTUR

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN KAMSITISHNING BARCHA SHAKLLARIGA BARHAM BERISH TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYANING (CEDAW) FAKULTATIV PROTOKOLIGA QO‘SHILISH BILAN BOG‘LIQ MASALALARNI O‘RGANISH

SANA
2026-yil 19–20-noyabr

JOY
Toshkent viloyati · Layner tog‘li dam olish maskani

1-KUN — CEDAW KONVENSIYASI VA FAKULTATIV PROTOKOLI: ASOSIY QOIDALAR VA XALQARO MEXANIZMLAR

Vaqt	Dastur bandi
07:45	Layner tog‘li dam olish maskaniga jo’nab ketish (Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazi binosi, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi, 15)
10:30	Ishtirokchilarning kelishi va mehmonxonaga joylashishi
10:30–11:00	Kutib olish qahvasi
11:00–11:30	Ochilish va ishtirokchilar kutayotgan natijalar KIRISH SO‘ZI: **Akmal SAIDOV**, Inson huquqlari bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, **Malika KADIRXANOVA**, Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator **Nodir TILAVOLDIYEV**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari **Pavlo BYALIK**, BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Boshqarmasi Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy bo‘linmasining Inson huquqlari bo‘yicha maslahatchisi **Temur SHAKIROV**, Xalqaro yuristlar komissiyasining (ICJ) Yevropa va Markaziy Osiyo dasturi direktori **Murod TURG‘UNOV**, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori – Tadbir maqsadlari va asosiy yo‘nalishlari bilan tanishish – Ishtirokchilarning kutuvlari va muhokama uchun ustuvor masalalarni aniqlash
11:30–12:15	**I-sessiya. CEDAW Konvensiyasi: asosiy tamoyillar va huquqiy kafolatlar** - CEDAW Konvensiyasining asosiy qoidalari va unda nazarda tutilgan huquqiy kafolatlar - Kamsitmaslik tamoyili, gender stereotiplarini bartaraf etish va 5-moddaning mazmuni - Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda davlatning roli, jumladan, xususiy shaxslar tomonidan sodir etiladigan kamsitish va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish masalalari.
12:15–13:00	**II-sessiya. CEDAW Qo‘mitasi faoliyati va davlatlar bilan hamkorlik mexanizmlari** - CEDAW Qo'mitasining tuzilishi, faoliyati va qo'llaydigan tartib-taomillari - O'zbekistonning hisobot taqdim etish amaliyoti - CEDAW Qo‘mitasining O‘zbekiston bo‘yicha tavsiyalari va 2022-yilgi yakuniy kuzatuvlari bilan tanishish.
13:00–14:00	Tushlik

DASTUR

Vaqt	Dastur bandi
14:00–15:00	**III-sessiya. CEDAW Fakultativ protokoli doirasidagi individual murojaatlar mexanizmi: xalqaro tartib va amaliyot** - Fakultativ protokol doirasidagi individual murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi, uning imkoniyatlari va qo‘llanish shartlari - Individual murojaatni taqdim etish, maqbullik mezonlarini baholash, davlatning pozitsiyasini taqdim etish, Qo‘mita xulosalari va keyingi kuzatuv jarayoni; - Xalqaro amaliyotdan olingan misollar asosida mexanizmning ishlash tartibini ko‘rib chiqish.
15:00–15:30	Qahva uchun tanaffus
15:30–17:00	**Interaktiv mashg'ulot. CEDAW Fakultativ protokoli doirasidagi murojaatni ko‘rib chiqish tartibi bilan tanishuv** - Xalqaro amaliyotdan olingan shartli vaziyatlar asosida guruhlarda ishlash - Murojaatning maqbullik mezonlari, tomonlarning pozitsiyalari va tegishli xalqaro standartlarni muhokama qilish; - Qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqiladigan masalalar va ehtimoliy xulosalar yuzasidan fikr almashish - Individual murojaatlar mexanizmining amaliy jihatlarini yaxshiroq tushunishga qaratilgan muhokama
17:00–17:30	Birinchi kun yakunlari va savol-javob - Kun davomida ko‘rib chiqilgan mavzular yuzasidan asosiy xulosalar - Qo‘shimcha o‘rganish va muhokama qilishni talab etadigan masalalarni aniqlash
19:00	Kechki ovqat

2-KUN

CEDAW FAKULTATIV PROTOKOLI: QO‘SHILISH BILAN BOG‘LIQ HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL JIHATLAR

Vaqt	Dastur bandi
09:30–09:45	Birinchi kun yakunlari va asosiy masalalar yuzasidan fikr almashish
09:45–11:00	**IV-sessiya. Individual murojaatlar mexanizmi: davlat institutlari va milliy huquqiy tizim bilan o‘zaro bog‘liqlik** - Guruhlarda ishlash: CEDAW Fakultativ protokoli doirasidagi individual murojaatlar mexanizmining jismoniy shaxslar va davlat institutlari faoliyati bilan bog‘liq jihatlarini muhokama qilish - Muhokama: Xalqaro murojaatlar mexanizmining milliy qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va huquqiy himoya vositalari bilan o‘zaro aloqasini ko‘rib chiqish - Xalqaro tajriba asosida milliy huquqiy va institutsional mexanizmlarni rivojlantirishga oid yondashuvlarni muhokama qilish - Tegishli sohalarda qo‘shimcha o‘rganish va tahlil qilishni talab etishi mumkin bo‘lgan masalalarni aniqlash
11:00–11:30	Qahva uchun tanaffus
11:30–12:50	**V-sessiya. CEDAW Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha keyingi qadamlar** - CEDAW Fakultativ Protokolini ratifikatsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish va ushbu jarayonga tayyorgarlik ko‘rish doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan keyingi qadamlarni belgilash; - Mazkur jarayon uchun zarur bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar va huquqiy tahlillarni aniqlash, tegishli davlat organlari, mas’ul idoralar va manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarni tashkil etish; - Tayyorgarlik doirasida boshlanishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar, shuningdek, qo‘shimcha texnik va ekspert ko‘magi talab etiladigan yo‘nalishlarni belgilash. **Kutilayotgan natija:** amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan chora-tadbirlar, ularni bajarish uchun mas’ul subyektlar hamda ishlarning ehtimoliy ketma-ketligini o‘z ichiga olgan dastlabki takliflar ro‘yxatini shakllantirish.
12:50–13:00	Fikr-mulohaza anketasini to‘ldirish va yakuniy savol-javob
13:00–14:00	Tushlik
15:30	Jo'nab ketish